

№	MUNDARIJA	Page
1.	YANGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYALASHNING MOLIYAVIY ZARURLIGI VA AHAMIYATI <i>Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	3
2.	ПРИМЕНЕНИЕ МСФО 17 В СТРАХОВОЙ СИСТЕМЕ УЗБЕКИСТАНА: ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ И ПОТЕНЦИАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ. АНАЛИЗ РЕЗЕРВОВ И ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ БАРЬЕРОВ <i>Баратова Динора Алишеровна</i>	6
3.	SUG'URTA POLISINI TANLASHDAGI MUAMMO VA AFZALLIKLAR <i>Yo'ldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	10
4.	O'ZBEKISTONDA "YASHIL SUG'URTA" MAHSULOTLARINI JORIY ETISH MASALALARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	13
5.	SUG'URTA TASHKILOTLARINING INVESTITSIIYA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Umarova Gulnora Akromovna</i>	16
6.	O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL TRANSPORT SUG'URTASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	18
7.	O'ZBEKISTONDA AVTOTRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASINING O'RNI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna, Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	20
8.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TIZIMI VA UNDAGI XAVFLAR <i>Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi, Akbaraliyeva Diyora</i>	22
9.	ПЕРСПЕКТИВЫ И БАРЬЕРЫ РАЗВИТИЯ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ (ТАКАФУЛ) В УЗБЕКИСТАНЕ <i>Мурадова Дилдора Абдусалимовна</i>	26
10.	YASHIL SUG'URTA TURLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI: ILMIY-NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV <i>Erkaboev Yorbek Boirbekovich</i>	31
11.	MILLIY SUG'URTA BOZORIDA INFORMATSION RISKLARNI SUG'URTALASHNI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xolbaev Azamat Yuldashovich</i>	34
12.	ПРЕИМУЩЕСТВА СТРАХОВАНИЕ И ЕГО РОЛЬ В ЭКОНОМИКЕ <i>Умарова Хуриида Олимжоновна</i>	38
13.	OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYALASH: HOMIYLIK MABLAG'LAG'LARIDAN FOYDALANISH <i>Dildora Bohodirovna Abdusattarova</i>	42
14.	SUVEREN KREDIT REYTING AGENTLIKLARINING BAHOLASH METODOLOGIYASIDAGI KAMCHILIKLARI TAHLILI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	45
15.	ЗЕЛЁНЫЕ ОБЛИГАЦИИ И КРЕДИТЫ: НОВЫЙ ВЕКТОР УСТОЙЧИВОГО РОСТА УЗБЕКИСТАНА <i>Гульмухамедова Дилбар Бахтиер кизи, Каримов Комилжон Хамидович</i>	48
16.	ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ПУТЬ К УСТОЙЧИВОМУ РАЗВИТИЮ СТРАНЫ <i>Гульмухамедова Дилбар Бахтиер кизи</i>	51

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



SUG'URTA POLISINI TANLASHDAGI MUAMMO VA AFZALLIKLAR

Yo'ldoshova Aziza Muzaffar qizi

Tashkent davlat iqtisodiyot universiteti "Sug'urta ishi" kafedrasida asisstanti
yuldoshova.aziza20@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss3/289

Annotatsiya: Ushbu maqolada sug'urta polisini tanlash jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar va bu tanlovning afzallik jihatlarini tahlil qilinadi. Sug'urta bozori taklif qilayotgan turli xil polislar orasidan to'g'ri tanlov qilish ko'plab iste'molchilar uchun murakkab vazifa bo'lib qolmoqda. Maqolada aynan shunday muammolar – ma'lumot yetishmasligi, shartnomalardagi murakkablik, narx va sifat o'rtasidagi nomutanosiblik kabi holatlar yoritiladi. Shu bilan birga, sug'urta polisini to'g'ri tanlash orqali erishiladigan afzalliklar – moliyaviy xavfsizlik, huquqiy himoya va tinchlik hissi kabi jihatlar ko'rib chiqiladi. Materialda, shuningdek, samarali tanlov uchun zarur tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta polisi, sug'urta bozori, moliyaviy xavf, tavakkalchiliklarni boshqarish, tanlov muammolari, huquqiy himoya, sug'urta turlari, mijoz ehtiyojlari, shartnoma shartlari, narx va sifat muvozanati, sug'urta kompaniyasi, ishonchlilik, moliyaviy barqarorlik, xizmat sifati, iste'molchi huquqlari

Abstract: This article analyzes the main problems encountered when choosing an insurance policy, as well as its advantages. For many consumers, selecting the most suitable policy among the wide range of offers in the insurance market is a challenging task. The article highlights issues such as lack of information, complexity of contract terms, and imbalance between price and quality. It also explores the benefits of making the right choice—financial security, legal protection, and peace of mind. The material includes practical recommendations for making an effective decision.

Keywords: insurance policy, insurance market, financial risk, risk management, selection problems, legal protection, types of insurance, customer needs, policy terms, price-quality ratio, insurance company, reliability, financial stability, service quality, consumer rights

Абстрактный: В данной статье рассматриваются основные проблемы, возникающие при выборе страхового полиса, а также его преимущества. Для многих потребителей выбор подходящего полиса среди множества предложений страхового рынка является сложной задачей. В статье освещаются такие проблемы, как недостаток информации, сложность условий договоров, несоответствие между ценой и качеством. Также рассматриваются преимущества правильного выбора страхового полиса — финансовая безопасность, правовая защита и чувство спокойствия. В материале даны рекомендации, необходимые для эффективного выбора.

Ключевые слова: страховой полис, страховой рынок, финансовый риск, управление рисками, проблемы выбора, правовая защита, виды страхования, потребности клиента, условия договора, соотношение цены и качества, страховая компания, надежность, финансовая стабильность, качество обслуживания, права потребителей

Kirish (Введение/Introduction).

Zamonaviy jamiyatda sug'urta tizimi inson hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Kutilmagan hodisalar, moliyaviy yo'qotishlar va turli xavf-xatarlar fonida sug'urta polisiga ega bo'lish – shaxsiy va moliyaviy barqarorlikning muhim omillaridan biridir. Biroq, bozorda mavjud bo'lgan turli sug'urta kompaniyalari va polislar orasidan eng maqsadga muvofiqligini tanlash oson emas. Har bir polis o'ziga xos shartlar, narxlar va imtiyozlarga ega bo'lib, noto'g'ri tanlov iste'molchini moddiy va huquqiy muammolarga olib kelishi mumkin.

Sug'urta polisi, sug'urta varaqasi — sug'urta shartnomasi yuridik kuchga kirganini tasdiqlaydigan hujjat.[6]

Ushbu maqolada sug'urta polisini tanlashda uchraydigan asosiy muammolar va mavjud afzalliklar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, to'g'ri tanlov qilish uchun nimalarga e'tibor qaratish lozimligi haqida tavsiyalar beriladi.

Adabiyotlar tahlili. (Обзор литературы / Literature review).

Sug'urta tizimi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, ayniqsa, sug'urta mahsulotlarini tanlash jarayoni, iste'molchilar qarorlariga ta'sir etuvchi omillar va bozor mexanizmlari bilan bevosita bog'liqdir. Ko'plab xorijiy va mahalliy mualliflar ushbu masalaga e'tibor qaratib, sug'urta polisini tanlashda yuzaga keladigan muammolar, iste'molchi ongining shakllanishi, axborot asimetriyasi va kompaniya ishonchlilik kabi omillarni tahlil qilgan.

Sug'urta polisi - ideal ko'rinishga ega bo'lib, soxtalashtirib bo'lmaydigan yorliqlarga ega bo'lishi kerak. Sug'urta polisida barcha ma'lumotlar qamrab olingan bo'ladi, shu bilan bir qatorda sug'urta polisida sug'urtalanuvchining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar,

sug'urta polisi taqdim qilingan sanasi, tugash muddati va boshqalar aks ettirilgan bo'lishi mumkin. (Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland)[3]

Quyidagi xalqaro olimlar ushbu yo'nalishlarda yetakchi hisoblanadi:

F. Knight (1921) o'zining risk va noaniqlik haqidagi klassik asarida tavakkalchilikni boshqarish mexanizmlarining asosiy vositalaridan biri sifatida sug'urtaning o'rmini belgilab bergan. Keyinchalik, Modigliani va Miller (1958) moliyaviy qarorlar kontekstida sug'urta polisining narx va foyda nisbatiga e'tibor qaratgan. Ularning ishlari hozirgi kunda ham sug'urta tanlovida xaridor qarorlariga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Mahalliy mualliflar, xususan, I.Kenjaye (2018) va S.Matiyazova (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa O'zbekistonda sug'urta bozorining rivojlanish sur'atlari, qonunchilikdagi o'zgarishlar, shuningdek, iste'molchilarni to'g'ri ma'lumot bilan ta'minlashdagi kamchiliklar yoritilgan. Ular sug'urta kompaniyalari tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar sifati va shartnomaviy shaffoflik darajasining iste'molchi tanloviga qanday ta'sir qilishini alohida tahlil qilgan. (Sug'urta mahsulotlari sotishni tashkil etish)

Shuningdek, Jahon Banki, OECD (Economic Co-operation and Development) va boshqa xalqaro tashkilotlarning hisobotlari global sug'urta bozori tendensiyalarini tushinishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ularda sug'urta polislarining standartlashtirilishi, iste'molchi huquqlarining himoyasi va raqobatbardosh xizmatlar ko'rsatish bo'yicha muhim tavsiyalar keltirilgan. Ba'zi zamonaviy maqolalarda esa (Masalan, "Emerging Trends in Insurance Market", 2021) raqamli texnologiyalar ta'siri, onlayn platformalar orqali polis tanlash qulayliklari, lekin

ma'lumotlarning yetarli bo'lmashligi va firibgarlik xavfi kabi muammolar yoritilgan.[7]

Tahliliy adabiyotlar asosida aniqlanishicha, polis tanlovidagi asosiy faktorlar quyidagilardir:

- xizmatlar assortimenti va shartlar aniq-ravshanligi;
- kompaniyaning mijozlar bilan ishlashdagi obro'si;
- narx va xizmat sifati o'rtasidagi balans;
- mijozning moliyaviy va axborot tayyorgarligi.

Shuningdek, zamonaviy adabiyotlarda, xususan Urvashi Suryavanshi (2023) tomonidan yozilgan "The Insurtech Revolution in Insurance Industry: Emerging Trends, Challenges and Opportunities" maqolasida raqamli texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt (AI), katta ma'lumotlar (Big Data), blockchain va IoT texnologiyalari asosida sug'urta xizmatlarining raqamlashtirilgani yoritilgan. Muallif sug'urta polislarini tanlashda onlayn platformalar orqali taqdim etilayotgan qulayliklarni, shuningdek, xizmat ko'rsatish tezligi va xarajatlarning kamayishi kabi afzalliklarni ta'kidlaydi. Shu bilan birga, maqolada firibgarlik xavfi va ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq muammolar ham ko'tarilgan. Mazkur zamonaviy yondashuvlar asosida maqolada sug'urta polisi tanlovidagi asosiy muammolar va ularni yechish yo'llarini raqamli transformatsiya kontekstida tahlil qilish uchun metodologik asos yaratilgan.[8]

Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sug'urta polisini tanlashda iste'molchilarning ongli qaror qabul qilishi uchun yetarli bilim, axborot ochiqdigi, kompaniya ishonchligi va qonuniy shartnomaviy asoslar muhim rol o'ynaydi. Shu bois, maqolada bu omillar asosida tanlovdagi muammolar va afzalliklar tizimli ravishda ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot usullari (Методология/Methodology).

Maqolada sug'urta polisini tanlashdagi muammo va afzalliklarni chuqur o'rganish maqsadida quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi:

Tahliliy-uslubiy yondashuv – sug'urta bozoridagi mavjud holat, xalqaro va mahalliy tajribalar asosida tahlil qilindi. Xususan, iste'molchilarning qaror qabul qilishdagi asosiy omillari va kompaniyalar taklif etayotgan xizmatlar o'rganildi.

Solishtirma tahlil – turli sug'urta polislarining shartlari, narxleri, huquqiy himoya darajasi va xizmat sifati o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar aniqlab chiqildi. Shu orqali iste'molchilar uchun eng maqbul tanlov mezonlari belgilandi.

Deskriptiv (ta'rifiy) yondashuv – O'zbekiston sug'urta bozorida shakllangan huquqiy va institutsional muhit tavsiflandi. Qonunchilikdagi mavjud me'yorlar, sug'urta kompaniyalarining faoliyat yuritish shakllari yoritildi.

Empirik usullar – iste'molchilar fikrini aniqlash va ularning sug'urta polisiga bo'lgan ishonch darajasini o'rganish maqsadida onlayn so'rovnoma va yarim tuzilgan intervyulardan foydalanildi. Bu metodlar orqali real ehtiyojlar va muammolar aniqlab olindi.

SWOT tahlil – sug'urta polisini tanlash jarayonida mavjud kuchli tomonlar, zaif jihatlar, imkoniyatlar va xavf omillari tizimli ravishda tahlil qilindi. Natijada iste'molchilar uchun foydali strategik tavsiyalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты. Analysis and results).

Respublikada moliya bozorini yanada rivojlantirish, aholini sifatli moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olish ko'lamini kengaytirish, sug'urta tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ushbu sohada iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari izchil amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashga, aholi hayotining sifati va darajasini oshirishga yo'naltirilgan moliyaviy xizmatlarni faol rivojlantirish respublikada sug'urta bozorining rolini kuchaytirishni va sug'urta vositalarini keng qo'llashni taqozo etmoqda.

Milliy sug'urta bozorini yanada isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash, sug'urta xizmatlarining talab yuqori bo'lgan yangi turlarini joriy etish, iste'molchilarning sug'urta bozoriga bo'lgan ishonchini oshirish maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirish bo'yicha Davlat dasturiga muvofiq [2]sug'urta sohasiga katta ahamiyat qaratilgan.

Sug'urta polisi tanlash jarayoni ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, iste'molchilarning ongli qaror qabul qilishi uchun to'liq va ishonchli

ma'lumotga ega bo'lishi zarur. Tadqiqot davomida mavjud sug'urta polislarining turlari, ularning shartlari va iste'molchilar uchun yaratilgan imkoniyatlar tahlil qilindi. Shuningdek, tanlovdagi asosiy muammolar aniqlanib, quyidagi xulosalarga kelindi:

Axborot yetishmasligi – So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning katta qismi sug'urta polisining huquqiy va moliyaviy shartlari haqida to'liq tushunchaga ega emas. Bu esa noto'g'ri tanlov va kelajakda norozi bo'lish xavfini oshiradi.

Shartnomalardagi murakkablik – Sug'urta shartnomalari ko'pincha murakkab huquqiy iboralar bilan to'ldirilgan bo'lib, oddiy iste'molchi tomonidan to'liq anglash mushkul. Bu holat iste'molchining huquqiy xabardorligini pasaytiradi.

Narx va sifat nomutanosibligi – Ba'zi hollarda yuqori narxli sug'urta polislarining taqdim etayotgan himoyasi va xizmat sifati past bo'lishi kuzatiladi. Bu esa narxga nisbatan ishonchsizlikni yuzaga keltiradi.

Ishonch omili – Sug'urta kompaniyasining obro'si, brendi va ilgari to'langan sug'urta tovonlari haqidagi ma'lumotlar mijozlar tanloviga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda.

SWOT tahlil natijalari: Kuchli jihatlar (Strengths): Sug'urta polisining moliyaviy xavflarni kamaytirishdagi samarasi, tinchlik hissini ta'minlashi.

Zaif tomonlar (Weaknesses): Ma'lumot yetishmovchiligi, shartnomalarning murakkabligi, kompaniyalar o'rtasidagi ishonchsizlik.

Imkoniyatlar (Opportunities): Sug'urtaning raqamli formatlarga o'tishi, mijozlar bilan ochiq muloqot, davlat tomonidan tartibga solish.

Xavflar (Threats): Noto'g'ri tanlov natijasida moliyaviy yo'qotishlar, firibgarlik holatlari, shartnoma shartlarining buzilishi.

Shuningdek, taqqoslashlar orqali sug'urta polisining to'g'ri tanlanishi nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlashi, balki kutilmagan holatlarda iste'molchining huquqiy va psixologik jihatdan himoyalinishiga xizmat qilishi aniqlangan.

Sug'urta polisining tanlanishi shaxsiy moliyaviy xavfsizlik, huquqiy himoya va ishonch asosida shakllanadi. Tadqiqot davomida mahalliy va xalqaro sug'urta bozorlaridagi holatlar, mijoz ehtiyojlari hamda kompaniya takliflari solishtirildi. Quyidagi asosiy jihatlar aniqlandi:

Bozordagi raqobatning kuchayishi – Oxirgi yillarda sug'urta kompaniyalari sonining ortishi va xizmat turlarining kengayishi natijasida iste'molchining tanlov imkoniyatlari oshmoqda. Biroq, bu holat mijozda chalkashlik va ishonchsizlikni ham yuzaga keltirmoqda.

Raqamli texnologiyalarning ta'siri – Onlayn sug'urta xizmatlarining paydo bo'lishi polislarini oson va tez tanlash imkonini bergan. Ammo bu xizmatlar orqali beriladigan axborot hamisha tushunarli bo'lmaydi, bu esa noto'g'ri tanlov xavfini oshiradi.

Sug'urta madaniyatining sustligi – So'rovnomalar shuni ko'rsatdiki, ko'plab fuqarolar sug'urtani majburiy tartibda emas, balki foydali moliyaviy vosita sifatida hali to'liq anglab yetmagan. Bu esa sug'urta bozorining rivojlanishini sekinlashtiradi.

Ijtimoiy va psixologik omillar – Ko'pchilik iste'molchilar tanlovda o'z tanishlari, qarindoshlari yoki jamiyatdagi mashhur kompaniyalarga e'tibor beradi. Bunday yondashuv ba'zida obyektiv emas, biroq iste'molchining xavfsizlikka intilish ehtiyojini ko'rsatadi.

Tavakkalchiliklarga nisbatan turlicha munosabat – Aholining turli qatlamlari orasida moliyaviy xavflarni baholash va boshqarish darajasi

Sug'urta mahsulotlari sotish tizimining xususiyatlari[2]

Sug'urta vositachilar	Sotish tizimining faolligi	Kam xarajat talab qiladigan sotuvlar	Qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatish imkoniyatlarining mavjudligi	Sug'urta bodisalari va risklarni qayta ishlash choqurligi
Brokerlar	+	-	+	+
Mustaqil sug'urta faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan vositachilar	-	+	-	Infrastruktura mos qo'shimcha personallarni tayyorlash imkoniyati
Agentlar	+	-	+	
Ofisdagi sug'urtachilar	-	+	-	
Telefon, pochta yoki kompyuter orqali	+	+	-	

farq qiladi. Bu esa kimdir uchun polis tanlashda ishonchli omil bo'lsa, boshqalar uchun ortiqcha xarajat sifatida qabul qilinadi.

Xalqaro tajriba – AQSh, Buyuk Britaniya, Turkiya va Malayziya kabi davlatlarda sug'urta polisining tanlovi odatda xizmat sifati, kompaniya reytingi va zarar qoplash tarixiga asoslanadi. Bu tajriba O'zbekiston sug'urta tizimiga joriy etish uchun foydali model bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardan ko'zlangan pirovard maqsad mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, xalqimiz turmush farovonligini yuksaltirishga qaratilgan, ana shunday iqtisodiyot tarmoqlaridan biri bu sug'urta xizmatlari sohasidir. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" ishlab chiqilgan bo'lib, Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarida sug'urta sohasini rivojlantirish yuzasidan qo'yidagilar belgilab berilgan: - yangi turlardagi sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hisobiga ularning xajmini kengaytirish va sifatini oshirish, kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va axolining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish[1].

Sug'urta polisi nusxa oluvchi qog'oz asosida aniq va ko'zda tutilgan barcha ma'lumotlarni ko'rsatgan holda to'ldiriladi. Moboda, polisda qaysidir grafa to'ldirilmasdan qolsa, u holda o'sha joyga chiziqcha qo'yiladi. Polisi rasmiylashtirish chog'ida unga tuzatishlar kiritish, sug'urta qildiruvchining ismi va familiyasini qisqartirilgan holda yozishga yo'l qo'yilmaydi. Agar sug'urta polisini yozishda xatoliklarga yo'l qo'yilsa, u holda unga "buzilgan" degan yozuv yoziladi va uning o'rniga yangi blanka to'ldiriladi hamda buzilgan polis sug'urta agentining hisobotiga tikiladi va sug'urtalovchiga topshiriladi.[5]

Xulosa (Заключение/Conclusion).

Sug'urta polisi tanlash jarayoni zamonaviy iqtisodiy hayotda shaxsiy va korporativ moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, sug'urta polisini tanlashda iste'molchilar bir qator muammolarga duch kelmoqda: axborot yetishmovchiligi, murakkab shartnomalar, kompaniyalar o'rtasidagi ishonch muammosi hamda xizmatlar sifatining barqaror emasligi.

Shu bilan birga, mavjud imkoniyatlar – raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, sug'urta madaniyatining asta-sekin shakllanishi va bozor ishtirokchilari o'rtasidagi raqobat iste'molchilar uchun qulay sharoitlar yaratmoqda. SWOT tahlili orqali aniqlangan kuchli va zaif tomonlar,

imkoniyatlar hamda xavflar, ushbu tizimni takomillashtirish uchun muhim omillar sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sug'urta polisini ongli ravishda tanlash uchun aholiga tushunarli va shaffof axborot berilishi, kompaniyalar tomonidan xizmat sifati va muloqot madaniyatining oshirilishi zarur. Shu bilan birga, davlat tomonidan nazorat va tartibga solish tizimi kuchaytirilsa, sug'urta bozorida ishonch muhitini yaratish va samarali faoliyat yuritishga erishish mumkin bo'ladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Axborot ochiqligini oshirish: Sug'urta kompaniyalari tomonidan taklif qilinayotgan polislar to'g'risidagi ma'lumotlar mijozlar uchun oddiy, tushunarli va solishtirishga qulay shaklda taqdim etilishi zarur. Maxsus mobil ilovalar yoki veb-platformalarda "polis solishtirish" xizmatlari joriy etilishi foydali bo'ladi.

Huquqiy savodxonlikni oshirish: Aholi o'rtasida sug'urta sohasiga oid bilim va tushunchalarni oshirish maqsadida seminarlar, onlayn kurslar va ijtimoiy tarmoqlarda targ'ibot materiallari tayyorlash tavsiya etiladi. Ayniqsa, yoshlar va kichik biznes vakillariga qaratilgan loyiha va treninglar samarali bo'ladi.

Shartnoma matnlarining soddalashtirilishi: Sug'urta kompaniyalari shartnoma matnlarini yuridik terminlar bilan haddan ziyod murakkablashtirmasligi, ularni mijozlar uchun soddalashtirib tushuntirish amaliyotini yo'lga qo'yishi lozim.

Mijozlar bilan ishonchli aloqani mustahkamlash: Sug'urta kompaniyalari o'z xizmatlarining sifatini oshirish, murojaat va shikoyatlarni tezkor hal qilish, shaffoflik tamoyiliga rioya qilish orqali mijozlar ishonchini oshirishi zarur.

Regulyatorlar nazoratini kuchaytirish: Sug'urta sohasini tartibga soluvchi davlat organlari tomonidan kompaniyalar faoliyatini doimiy monitoring qilish, firibgarlik holatlarining oldini olish va iste'molchi huquqlarini himoya qilish bo'yicha qat'iy choralar ko'rilishi lozim.

Raqamli sug'urtaning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash: Elektron sug'urta tizimlarini rivojlantirish orqali polislarini onlayn rasmiylashtirish, xizmatlarga tezkor kirish imkoniyati ta'minlanadi. Bu esa mijozlar uchun qulaylik, kompaniyalar uchun esa samaradorlikni oshiradi.

Bozor segmentatsiyasi va moslashtirilgan polislar ishlab chiqish: Turli ehtiyojga ega iste'molchilar uchun maxsus sug'urta mahsulotlari (yoshlar, nafaqadagi fuqarolar, kichik tadbirkorlar va boshqalar) ishlab chiqilishi mijozlar ehtiyojini to'liqroq qondirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3107036>
2. O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-noyabrda PF-3-sonli Farmoni <https://lex.uz/acts/-4459802>
3. www.Studme.org
4. Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain, 1993, 325pp
5. Kenjayev I. Matiyazova S. Adilova G. Sug'urta mahsulotlarini sotishni tashkil etish. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-m oliya, 2018.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sug%CA%BBurta_polisi
7. <https://safetyfirstinsure.com/insurance-market-trends-for-high-risk-drivers/>
8. <https://doi.org/10.53983/ijmnds.v11n08.002>